



O‘zbekistonda budget tashkilotlarida moliyaviy nazoratini takomillashtirish istiqbollari

Rizayev Nurbek Kadirovich

O‘zbekiston Respublikasi bank moliya
akademiyasi “Buxgalteriya hisobi
va audit” kafedrasini mudiri

Maxamadaliyev Boburbek Baxodir o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi bank moliya
akademiyasi tinglovchisi

Tel: 94 277-88-98

Email: mbobur313@gmail.com

Annotasiya: Mazkur maqolada moliyaviy nazoratning mohiyati, ahamiyati va samarali moliyaviy nazoratni amalga oshirish orqali budget mablag‘laridan tejamkorlik asosida foydalanish masalalari o‘rganilgan hamda budget tashkilotlarida moliyaviy nazoratini tashkil etish va ularning tahlilini amalga oshirish, yo‘llarini ko‘rsatish borasida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: budget, moliyaviy nazorat, nazorat tashkilotlari, budget tashkilotlari, budget mablag‘lari.

Аннотация: В данной статье исследуются сущность и значение финансового контроля и вопросы экономного использования бюджетных средств посредством осуществления эффективного финансового контроля, а также мнения об организации финансового контроля в бюджетных организациях и их анализ, и показывая пути.

Ключевые слова: бюджет, финансовый контроль, контролируемые организации, бюджетные организации, бюджетные средства.

Abstract: This article examines the nature and importance of financial control effective use of budget funds through effective financing opinions on the organization of financial control in management and budget organizations and their analysis, showing ways.

Keywords: budget, financial control, control organizations, budget organizations, budget funds.

KIRISH



Mamlakatimizda bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida budget nazorati siyosatida olib borilayotgan islohotlar sharoitida budget tashkilotlarini budgetdan moliyalashtirishni qisqartirish uchun olib borilayotgan amaliy ishlar, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg`armalari ahamiyatining yuqori ekanligini ko`rsatib bermoqda. Moliyaviy nazorat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish ustidan davlat nazoratining tarkibiy elementi bo`lib hisoblanadi.

Moliyaviy nazorat - bu faoliyat yurituvchi xo`jalik sub`yektlarining moliyaviy muomalalarini o`rnatilgan qonun-qoidalar doirasida amal qilinishini ta`minlovchi ularning samaradorligini tahlil qiluvchi va ularni kelgusida takomillashtirish bo`yicha takliflar ishlab chiquvchi mas`ul organlarning aniq maqsadga yo`naltirilgan faoliyati. Budget ijrosi jarayonida davlat budgeti mablag`lari va budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag`lari shakllanishi hamda sarflanishini uzluksiz hisobga olish, ularni hujjatlashtirish va axborotlarni tizimli shakllantirish uchun budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tashkil etilgan. Budget mablag`laridan oqilona va samarali foydalanish, budget taqchilligini oldini olish dolzarb masalalardan biri sanaladi. “Albatta, Davlat budgeti o`lchovsiz emas, mablag`larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta`minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo`lmaydigan haqiqat”²- deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o`z nutqlarida.

Bugungi kunda budget jarayonining barcha bosqichlarida budget intizomiga rioya qilinishi ustidan doimiy va samarali nazoratni ta`minlash dolzarb masalalardan biri bo`lib qolmoqda. Zero, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni moliyaviy ta`minlashda byudjet xarajatlarining samaradorligini oshirish, ularning aniq maqsadli va manzilli bo`lishiga erishish eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu maqsadga erishish uchun byudjet intizomiga rioya etilishini yanada kuchaytirish, byudjet mablag`larining belgilangan maqsadlarda sarflanishi ustidan qattiq nazoratni ta`minlash juda muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

² O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishining asosiy yakunlari va 2017 yilga no`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma`ruzasi.16.01.2017.



Moliyaviy nazoratni tashkil etish bu moliyaviy resurslarni boshqarishning majburiy elementi hisoblanib, bunday boshqaruv jamiyat oldidagi javobgarlikni aks ettiradi. Nazorat bu oxirgi maqsad hisoblanmaydi, nazorat bu boshqarish tizimining ajralmas qismi bo‘lib, mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimining samarali amal qilishining zaruriy shartidir. Moliyaviy nazorat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish ustidan davlat nazoratining tarkibiy elementi bo‘lib hisoblanadi.

Usmonov Q.A. esa, budjet daromadlarini rejalashtirishning ahamiyati to‘g‘risida to‘xtalib, hozirgi kunda budjet daromadlarini rejalashtirish uchun zarur ma‘lumotlar bazasini yetarli va sifatli darajada shakllantirish hamda bu boradagi huquqiy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish va budjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni tartibi, usuli, muddati hamda ishtirokchilar vazifalarini aniq ko‘rsatib beruvchi huquqiy hujjat qabul qilish lozimligini ilgari suradi.³

Mamlakatimizda budjet tizimida ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlarda biri Sh.A.Toshmatov, mahalliy budjetga soliq tushumlarini oshirishga yo‘naltirilgan bir qator tadbirlarni keltirib, unda soliqlarni turli darajadagi budjetlar o‘rtasida taqsimlash tizimini mahalliy hokimiyatlarning soliq tushumlarini maksimallashtirishdan manfaatdorligini ta‘minlash kontekstida takomillashtirish bo‘yicha fikr mulohazalarni berib o‘tadi.⁴ Shuningdek, hududiy soliq salohiyatni baholash va mahalliy soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish zarurligini ilgari suradi.

Iqtisodchi olim U.D.Zaynutdinovning ta‘kidlashicha, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlashning muhim yo‘llaridan biri ma‘muriy hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasiga qarab real tarzda tabaqalashtirish imkonini beradigan ob‘ektiv mezonlar tizimiga o‘tish hisoblanadi.⁵

Tadqiqot metodologiyasi:

³ Usmonov Q.A. Byudjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni, usullari va ularni takomillashtirish yo‘nalishlari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2014 yil. http://iqtisodiyot.uz/sites/default/files/maqolalar/16_Q_Usmonov.pdf

⁴ Toshmatov Sh.A. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishda davlat byudjeti daromadlari manbalarini kengaytirish yo‘nalishlari // O‘zbekistonda moliya sektorini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. 2017 yil 10 noyabr. –T.: TDIU, 2017. -b.27-28.

⁵ Zaynutdinova U.D. Hududlar mahalliy byudjet daromadlarini oshirish masalalari // O‘zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishga bankmoliya tizimining samarali ta‘sirini kuchaytirish. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya tezislari to‘plami. T.: Moliya, 2017. -b. 90.



Mazkur maqolada O‘zbekistonda budjet nazorati va budjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni tubdan isloh etish borasida amalga oshirilayotgan keng – ko‘lamli amaliy ishlar tahlil qilingan. Mazkur tahlil jarayonini yanada tushunarli va aniq bo‘lishi uchun maqolada chizmalar va jadvallar usulidan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi:

Budjet tashkilotlari budjet mablag‘larining asosiy iste‘molchisi hisoblanib, davlat budjeti xarajatlarini tashkil etadi va xarajatlar smetasi asosida budjetdan moliyalashtiriladi. Shuningdek, budjet tashkiloti qonunchilikka muvofiq budjetdan tashqari mablag‘lar yuzasidan tashkil bo‘lish manbalari va foydalanish yo‘nalishlari ko‘rsatilgan holda budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetalar doirasida xarajatlarni amalga oshiradi. Oxirgi yillarda davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalga oshirish doirasida so‘nggi natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish tamoyillarining joriy qilinishi, budjetning g‘azna ijrosiga o‘tilishi, o‘rta muddatli budjet istiqbollari belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat hamda budjet siyosatidagi boshqa o‘zgarishlarning amalga oshirilishi budjet tashkilotlarida o‘z xarajatlarini aniqlash va smetalarni ishlab chiqish, budjetdan tashqari mablag‘larni safarbar qilish tartiblarini takomillashtirishni talab etmoqda.

Mamlakatimizda samarali moliyaviy nazorat tizimi yo‘lga qo‘yilganligi, byudjet mablag‘laridan maqsadli, tejamli foydalanishni ta‘minlash maqsadida davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy nazorat-taftish boshqarmalari tashkil etilganligiga qaramasdan, moliya organlari va byudjet muassasalari faoliyatida ba‘zan byudjet mablag‘larini noto‘g‘ri sarflash, noqonuniy xarajatlarni amalga oshirish, hamda byudjet mablag‘larini o‘zlashtirish holatlari barham topmayapti. Fikrimiz tasdig‘i sifatida, byudjet tashkilotlarida amalga oshirilayotgan taftish va tekshirishlarda aniqlanayotgan quyidagi tizimli ravishdagi qoidabuzilishlar ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin⁶:


- budjet muassasalari tomonidan xarajatlar smetasini rejalashtirishda amaldagi me‘yoriy xujjatlar talablari chuqur o‘rganilmaganligi natijasida budjetdan ortiqcha mablag‘ olish;

⁶ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. O‘quv qo‘llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA” 2008 y. 316 b.



- umumta'lim muassasalarida tarifikatsiya jadvalini tuzishda vakant soatlarga yuqori toifali tarif razryadlari qo'llanilishi natijasidan byudjetdan ortiqcha mablag' olish;
- turli sabablar bilan o'tilmagan dars soatlari hisobidan iqtisod bo'lgan mablag'larni o'z vaqtida (hisobot davri yakuni bilan) tegishli budjetga qaytarilmasligi;
- vakant saqlanayotgan shtat birliklari hisobidan iqtisod bo'lgan mablag'larni o'z vaqtida (hisobot davri yakuni bilan) tegishli budjetga qaytarilmasligi;
- mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasi razryadlarini va koeffitsiyentlarini hamda ustama to'lovlarini noto'g'ri qo'llash hisobiga ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'yish;
- ishlaymaydigan xodimlarning plastik kartochkalariga mablag' o'tkazib berish;
- byudjet muassasalarida ishlovchi xodimlar soxta diplom va malaka toifalari guvohnomalari bilan hamda nostrifikatsiyadan o'tkazilmagan chet el ta'lim muassasalari diplomlari bilan faoliyat yuritishlari va boshqa holatlar.

Bugungi kunda budjet jarayonining barcha bosqichlarida budjet intizomiga rioya qilinishi ustidan doimiy va samarali nazoratni ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Zero, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni moliyaviy ta'minlashda budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish, ularning aniq maqsadli va manzilli bo'lishiga erishish eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu maqsadga erishish uchun budjet intizomiga rioya etilishini yanada kuchaytirish, budjet mablag'larining belgilangan maqsadlarda sarflanishi ustidan qattiq nazoratni ta'minlash juda muhimdir.



1- chizma: Byudjet nazoratining turlari⁷

Dastlabki nazorat – budjet tizimida reja, dastur va smetalarni tuzish va tasdiqlash jarayonida budjet intizomiga rioya qilinishi shuningdek, qonunchilik talablari buzilishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi.

Joriy nazorat – budjet ijrosi jarayonida maxsus organlar tomonidan tezkor amalga oshirilib, sodir bo’lgan muomalalarini qonuniyligi, pul mablag’larini oqilona sarflanishi, mulkiy qiymatliklar bo’yicha hisob ma’lumotlarini haqiqiy holatga mosligi, hisoblashuvlar holati va boshqalar nazorati amalga oshiriladi. Masalan buxgalteriya hisobining asosiy funksiyalaridan biri nazorat bo’lib, ko’p jihatdan buxgalteriya hisobi tuzilmasini to’g’ri tashkil qilinishiga bog’liq.

Keyingi nazorat – bu o’tgan moliya davridagi zarur hisob va hisobot axborotlarining qonuniyligini, byudjet intizomiga rioya qilinganligini aniqlash va faoliyat natijalarini umumlashtirish uchun amalga oshiriladi. Bunda budjet tashkiloti faoliyatini kompleks taftish qilinishi yoki moliyaviy audit o’tkazilishi mumkin (1- chizma).

Budjet [jarayoni](#), odatda, budjet faoliyatining quyidagi to’rt bosqichini o’z ichiga oladi:

⁷ I.N.Qo’ziyev, SH.V.G’aniyev, A.S.Ramazonov. Byudjet hisobi va nazorati: Darslik /; - T.: «Nihol print» OK, 2022. 632 b.



- budjet loyihasini tuzish (ishlab chiqish, yaratish);
- budjetni ko'rib chiqish (muhokama qilish) va tasdiqlash;
- budjetni ijro etish;
- budjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.

Davlat budjeti ijrosining hisobi ustidan umumiy uslubiy rahbarlik qilish vakolati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi budjet hisobi va nazorati bo'yicha quyidagilarni amalga oshiradi:

- davlat byudjeti ijrosining buxgalteriya hisobini tashkil qilishga uslubiy rahbarlik qiladi;
- budjet ijrosining buxgalteriya hisobi bo'yicha moliya organlari, budjet tashkilotlari va vakolatli organlar uchun yo'riqnomalar va uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqadi;
- respublika budjeti ijrosini amalga oshiradi va hisobot tuzadi.

Xulosa

Mazkur maqola orqali shuni xulosa qilib keltirish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida nazorat ishlari samaradorligini ta'minlash, hamda budjet mablag'laridan foydalanish yuzasidan samarali moliyaviy nazoratni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari yuzasidan quyidagi asosiy xulosa, taklif va tavsiyalarimizni aks ettiramiz:

- davlat siyosatiga mos ravishda moliyaviy nazorat tizimini isloh qilib borishni ta'minlash;
- moliyaviy nazorat qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ko'zda tutilgan natijaga erishishni ta'minlashga xizmat qilishi lozim;
- moliyaviy nazorat organlarining budjet xarajatlarini optimallashtirishga qaratilgan yuqori samarali faoliyatini rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish;
- moliyaviy nazorat sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini amalga oshirish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati



1. “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi qonun (Yangi tahriri) O’RQ-404- son 13.04.2016 y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
3. Vahobov A., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O’quv qo’llanma.- T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008. 260b.
4. Mehmonov S.U., Karimova Z.X., Tursunov A.S; “Bujet tizimi” Darslik, T.; “Iqtisod-moliya”, 2018 yil. 544 bet.
5. I.N.Qo’ziyev, SH.V.G’aniyev, A.S.Ramazonov. Budjet hisobi va nazorati: Darslik /; - T.: «Nihol print» OK, 2022. 632 b.